

O`QUV YILI QACHONDAN BOSHLANADI?

SAVOL: - Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o`quv yili qachondan boshlanadi va qachon tugaydi?

JAVOB: - Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari o`z faoliyatlarini O`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O`zbekiston Respublikasining "Ta'lim to`g`risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Maktabdan tashqari muassasa to`g`risidagi Nizom (Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 18 fevraldagi 59-sonli qarorining 2-ilovasi), "Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar Konsepsiyasi"

hamda Maktabdan tashqari ta'limga qo`yilgan Davlat talablari kabi hujjatlar asosida amalga oshiradi.

Maktabdan tashqari muassasa to`g`risidagi Nizom (Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 18 fevraldagi

59-sonli qarorining 2-ilovasi)ning III (Ish faoliyatini tashkil etish va uning asoslari) bo`limida quyidagi bandlar belgilangan:

7. To`garaklar, dasturlar talablariga ko`ra, butun o`quv yili uchun ham, qisqaroq muddatlarga ham

tashkil etiladi.

To`garaklarni to`ldirish may oyida boshlanadi va asosan mazkur yilning 10 sentyabrida tamomlanadi.

To`garaklarning mashg`ulotlari mazkur yilning 15 sentyabridan kechikmay boshlanadi va odatda keyingi yilning 25 mayida tugallanadi.

8. Ta'til paytlarida maktabdan tashqari muassasalar o`quvchilar va ularning ota-onalari bilan ularning bo`sh paytlarini mazmunli o`tkazish, dam olishlarini to`laqonli amalga oshirish imkoniyatini tug`dirgan holda bolalar va o`smirlarning turar joylarida, konsert safarlari, poxodlar, ekskursiyalar, sayohatlar, musobaqalar (shu jumladan, o`quvchilarning yangi o`zgaruvchan guruhlari bilan to`garaklar, seksiyalar va studiyada, shahardan tashqaridagi oromgohlarga kunlik borgan holda), turli-tuman ommaviy ishlarni tashkil qiladilar. Yozgi ta'til paytida maktabdan tashqari muassasalar o`quvchilar uchun yo`nalishli (profilli) bolalar oromgohlari hamda turistik bazalar ochishlari mumkin.